

QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTIDA INNAVATSION YANGLIKLARNI QO‘LLASH

Umaraliyeva Nasiba

nasibatoxtayeva4090@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda qishloq xo‘jaligi sohasida iqtisodiyotini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalar qo‘llash bo‘yicha tahliliy mulohazalar keltirilgan bo‘lib, agroinnovatsiyalarni moliyalashtirishni tartibga solishdagi asosiy yo‘nalishlar o‘rganilgan va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning manbalari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion texnologiya, davlat siyosati, tarkibiy o‘zgarishlar, soliqqa tortish, bozor mexanizmi, faollik, ilmiy g‘oya, fundamental mulk, xorij tajribasi, konsepsiya, baholash, uslublar, strategiya.*

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligining asosiy masalasi – bu qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta‘minlashda sohaga innovatsiyani joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hisoblanadi. Bugungi kunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste‘moli 80-90 foizini tashkil qilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari importi yildan yilga kamayib, uning eksport hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning va mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda.

O‘tgan davrda fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida zarur infratuzilma yaratildi va muayyan intellektual hamda texnologik salohiyat shakllantirildi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatimiz tomonidan mamlakat qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirish muamolarini aniqlamay va ularning yechimlarini topmay turib, iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy muamolarini, ayniqsa, ishsizlikni oldini olish, aholi daromadlarini oshirish, iste‘mol bozorini mahsulotlar bilan to‘ldirish va eksportni oshirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Yuqoridagi muommalarni ijobiy hal etgan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqariladigan YAIMning 67 foizdan ko‘prog‘i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog‘ining ulushiga to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish borasida strategik muhim rol o‘ynaydigan innovatsion loyihalarni amalga oshirish, birinchi navbatda ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan kichik biznes korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish ishlarini amalga oshirishda yurtimizdagi siyosiy iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik har qanday sarmoyaning asosiy garovi va sharti bo‘lib hisoblanadi. Chet el sarmoyasi uchun innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi uchun

5-Iyul, 2026-yil

qonuniy kafolat ham yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston

Respublikasining 2015-yil 25-avgustda qabul qilingan O‘RQ-392-sonli “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyulda qabul qilingan PQ-916-sonli “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustda qabul qilingan PQ-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni kabi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqarishning texnologik darajasini yanada oshirishda ilmiy izlanishlarni fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib ishlab chiqarishning texnologik darajasining yanada oshirilib, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh va sifatli innovatsion mahsulotlarni olib chiqishni ta‘minlab, innovatsion ishlanmalardan foydalanish va ilmiy texnikaviy salohiyatni rivojlantirishda muhim dastur bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlash chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida” 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli Farmoni mamalakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni yangilash va innovatsion texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha uzluksiz jarayonning mantiqiy davomi bo‘ldi. Bu farmonda dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etish borasida qiymati 30 million AQSH dollaridan ziyod va chet ellik investor ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan loyihalar bo‘yicha ishlab chiqarish maydoni tashqarisida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish budget mablag‘lari hamda ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Shu maqsadda, mamlakat qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalar barqarorligini davlat tomonidan tartibga solishda uning rivojlanishini ta‘minlash va jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvini mustahkamlashda milliy iqtisodiyotimizga ichki va xorijiy investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, hukumatimiz tomonidan ichki va chet el investitsiyalari uchun mamlakatimizda yetarli darajadagi shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Tadbirkorlar yangi texnologik imkoniyatlarni ochmoqda, ammo ularni amalga oshirish imitatorni tanlashga bog‘liq bo‘ladi. Boshlang‘ich tashkilotlari soni ko‘p bo‘lgan texnologiyaning bozorda yetakchi bo‘lishi ehtimoli ham katta bo‘ladi. Albatta, texnologiyalar raqobati natijasi bozordagi barcha agentlar tanlovi bilan aniqlanadi, ammo dastlabki retsepiyentlarning ta‘siri baribir nisbatan kattaroqdir. Innovatsiyalarning tez tarqalishi uchun rivojlangan infratuzilma mavjud bo‘lishi kerak. Innovatsiyaviy jarayon siklik xarakterga ega bo‘lib, texnikaning turli sohalaridagi yangiliklarning xronologik tartibda paydo bo‘lishi buni namoyon qiladi.

Shuni ham ta‘kidlab o‘tish mumkinki, innovatsiya – bu shunday texnik-iqtisodiy siklki, unda tadqiqot va ishlanmalar sohasi natijalaridan foydalanish, ushbu soha faoliyatiga teskari ta‘sir ko‘rsatuvchi texnik va iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keladi. Innovatsiyaviy

jarayon faoliyati rivojlanishi sari alohida qismlarga bo‘linadi va mehnat taqsimoti natijasida alohida chiqarilgan funksional tashkiliy birliklar ko‘rinishida moddiylashadi. Innovatsiyaviy jarayonning iqtisodiy va texnologik ta’siri yangi mahsulot yoki texnologiyalarda qisman o‘z aksini topadi.

Innovatsiyaviy tizim va uning tarkibiy elementlari texnologik darajasini va bu bilan innovatsiyalarga moyilligini oshirishda iqtisodiy va texnologik ta’sirning o‘rni kattaroqdir. Loyihalarni davlat tomonidan tartibga solishda boshqarishning muhim tarkibiy qismlari sifatida moliyaviy strategiyani ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalari yoki investorlarni izlash, moliyaviy mablag‘larni boshqarishni ta’kidlab o‘tish joiz.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi bugunning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Bunda qishloq xo‘jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ularning o‘ziga xos shart-sharoitlari hamda bozor munosabatlariga o‘tish bilan bog‘liq muammolarini hisobga olgan holda innovatsion boshqaruvni yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida” 2015-yil 25-avgustdagi O‘RQ-392-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” 2019-yil 25-dekabrda O‘RQ-598-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2015–2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida” 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 1-avgustdagi PQ-5495-sonli Farmoni.
6. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisa Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 22.12.2017-yil.
7. Файзиев О. Социально-экономическое значение возделывания масличных культур в Узбекистане / Proceedings of the II nd International Scientific and Practical Conference “Modern Scientific Achievements and Their Practical Application (October 20-21, 2015, Dubai, UAE)”. – Dubai, 2015. – № 3(3), Vol.3. – P.10-11.

5-Iyul, 2026-yil

8. Файзиев О.Р. Потребность населения в растительном масле в условиях Узбекистана и методические аспекты её определения // “Экономика и предпринимательство”. – Москва, 2017 г., №12 (ч.2) (89-2). (Vol. 11 Nom. 12-2) 305-309.

